QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR (NEKRONIMLAR) VA ULARNING NOMLANISH TARIXI

Yusupov San’at Shuxratovich *– Nukus davlat pedagogika instituti*
2-kurs magistranti

Har bir inson o‘z ajdodlari, o‘zining kimlar avlodidan ekanligini bilmog‘i lozim. Har bir millat vakili tarixga nazar solar ekan o‘zi va millatininmg kelib chiqishi va ushbu millatdan kimlar yetishib chiqganligini bilib oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir yosh avlod o‘z millati tarixini bilmog‘i lozim. “Tarix odam zodning hayot uchun kurashini, bu jarayonda uning takomillashuvini, yuksalishini, kam olotga intilishini aks ettiruvchi xotira daftaridir” degan ma’noli so‘zlar bejizga aytilmagan. Biz ham ushbu maqolamizda xotira daftarini o‘rganishga harakat qilamiz. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi hududidagi nekronimlarni, ularning nomlanish tarixini o‘rganar ekanmiz, islom dini kirib kelgandan keyin bu hududdagi nekronimlar asosan islom diniga aloqador insonlar ya’ni, shu yerlik xalqga islom dinini targ‘ib qilgan insonlar nomiga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Chimboy tumanining “Qamis ariq” APJda joylashgan Besim eshon qabristoni, Ellikqa’la tumanining “Sarabiy” OFYda joylashgan Muso eshon Bobo qabristoni. Bu ma’lumotlar asosida shuni anglashimiz mumkinki, Qoraqalpog‘iston hududida diniy ulamolar va ularning din yo‘lida qilgan ishlarini qadrlashgan va dafn qilingan qabristonga nomini berishgan.

Qoraqalpoq millati turli xil urug‘larga bo‘linganligi sababli ayrim qabristonlar qaysi urug‘ vakillari dafn qilinganligiga qarab ham urug‘ nomi bilan atalgan. Masalan: Chimboy tumanining “Baxtli” APJda joylashgan Arsari qabristoni, Kegeyli tumanining “Abat” APJ da joylashgan Shuyt qabristonlari misol tariqasida keltirish mumkin.

Nekronimlar: Gumbezli qabristoni. Gumbezli qabristoni Kegeyli tumanining “Aqtuba” APJ da joylashgan. Aytishlaricha, Madiri ismli eshonning tushiga qabrda yotgan inson kiradi. Tushida ayon qilinishicha, “Mening qabrimni baland tepalikga ko‘chir, oyog‘im suvga tegib qoldi”, – deydi. Madiri eshon qabrni ochadi, qarasa haqiqatdan ham jasad oyoqlari suvga tekkan bo‘ladi va qabrni baland tepalikka ko‘chirib, qabr ustiga katta gumbazli maqbara soldiradi. Shu voqeadan buyon bu qabriston Gumbezli qabriston deb atalgan.

Keneges qabristoni. Keneges qabristoni Kegeyli tumanining “Abat” APJ da joylashgan. Keneges qoraqalpoqning urug‘i nomi va shu urug‘ nomi bilan ataluvchi ovul ham bor. Qabriston nomi urug‘ nomidan kelib chiqqan.

Belgi qabristoni Belgi qabristoni Kegeyli tumanining “Jalpaq jap” APJ da joylashgan. Turkmanlar bosqini davrida turkmanlar shu yerda besh qizni o‘ldirgan. Mahalliy aholi besh qizni dafn qilib belgi qo‘yishgan va bu qabriston nomi Belgi qabristoni deb atalgan.

Nasrulla maqsim qabristoni. Nasrulla maqsim qabristoni Mo‘ynoq tumanining “Bo‘zatav” OFYda joylashgan. Nasrulla maqsim qabristoni joylashgan hududda oldingi davrlarda Nasrulla bobo yashab o‘tgan. U Qoraqalpoqlarning Ashamayli urug‘idan bo‘lgan. Nasrulla ata Buxoro madrassalarida ta’lim olgan bilimdon inson

bo‘lgan. Uning Qoraqalpoq adabiyotining yirik vakili Ajiniyozning merosining saqlanib qolinishi va xalq orasida tadbiq qilinishida katta rol o‘ynagan. Nasrulla bobo xalq orasida katta hurmatga ega inson bo‘lgan.

Shuning uchun Nasrulla bobo olamdan o‘tgandan keyin dafn qilingan qabristonga uning nomini berishgan.

Qalmaq qabristoni. Qalmaq qabristoni Mo‘ynoq tumanining “Do‘stlik” OFYda joylashgan. Qalmaq qabristoni nomining kelib chiqishi aslida Qoraqalpoq millatining Qalmaq urug‘i nomiga qo‘yilgan. Bu qabristonga Qalmaq urug‘i vakillari dafn etilganligi sababli bu qabriston nomi Qalmaq qabristoni deb nomlanadi.

Jabbor ota qabristoni. Jabbor ota qabristoni To‘rtko‘l tumanining “Sho‘raxon” OFYda joylashgan. Bu qabriston nomi Jabbor ismli diniy bilimga ega ulamo nomiga qo‘yilgan. Jabbor ota turkmanlar bosqini davrida turkmanlar tomonidan o‘ldiriladi. Jabbor ota dafn qilingan joy qabristonga aylanib Jabbor ota qabristoni nomini oladi.

G‘ayip ota qabristoni. G‘ayip ota qabristoni “Ko‘hna To‘rtko‘l” OFYda joylashgan. Ushbu qabristonning nega bunday nomlanganligi sababi G‘ayip ota ismli juda katta diniy bilimga ega inson yashab o‘tgan G‘ayip ota olamdan o‘tgach shu yerga dafn qilinadi va bu qabriston shunday nomlana boshlanadi.

Eshon bobo qabristoni. Eshon bobo qabristoni To‘rtko‘l tumanining “Ulli bog‘”OFYda joylashgan. Eshon bobo qabristoni oldingi davrdan saqlanib kelayotgan qabriston hisoblanadi. Bu qabristronning eski nomi shu vaqtgacha saqlanib qolinmagan. 2001-yilda Pirim maxsim ismli inson tomonidan obodonlashtirilib Eshon bobo nomi berilgan va qabrlar qo‘yila boshlangan.

Hamza qabristoni. Hamza qabristoni Taxtako‘pir tumanining “Qaraoy” APJda joylashgan. Bu qabriston haqida shu yerlik yoshi kattalarning aytishiga qaraganda, qadimda Hamza ismli o‘zbek bo‘lgan, kunlarning birida turkmanlar bostirib keladi va uni o‘ldirib shu yerga dafn qilishadi. Ushbu voqeadan keyin bu qabriston Hamza qabristoni deb ataladi.

Irg‘aqli avliyo. Irg‘aqli avliyo Taxtako‘pir tumanining “Qaraoy” APJda joylashgan. Irg‘aqli qabristoni bu qabristonga Qoraqalpoqlarning Irg‘aqli urug‘idan bo‘lgan insonlar dafn qilingan va qilinib kelinmoqda, shuning uchun ham bu qabriston Irg‘aqli avliyo deb ataladi.

Ataning avliyosi qabristoni. Ataning avliyosi qabristoni Taxtako‘pir tumanining “Atakól” APJda joylashgan. Ataning avliyosi qabristoni shu yerlik keksa insonlarning aytishiga qaraganda Annet ota degan kuchli diniy bilimga ega ulamo inson bo‘lgan. O‘zi masjit ochib bolalarni o‘qitib ta’lim bergan. Annet ota olamdan o‘tib shu yerga dafn qilingan va xalq bu qabristonni Ataning avliyosi qabristoni deya ataganlar.

Ruslar qabristoni. Ruslar qabristoni Beruniy tumanining “Do‘stlik” OFYda joylashgan. Ruslar kabristoni XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan.Bu qabriston nega bunday nomlanganligi o‘z nomi bilan yaqqol ko‘rinib turibdi. Ruslar qabristoniga Rus millatiga mansub insonlar dafn qilinganligi uchun shunday nomlangan.

Karimboy bobo qabristoni. Karimboy bobo qabristoni Beruniy tumanining “Beruniy” OFYda joylashgan. Karimboy bobo qabristonining nomlanishi. Ushbu hududda Karimboy bobo ismli xalq orasida katta obro‘-e’tiborga ega inson yashab o‘tgan. U olamdan o‘tgandan keyin dafn etilgan qabriston Karimboy bobo deb nomlangan.

Dovud ota qabristoni. Dovud ota qabristoni Beruniy tumanining “U.Jumaniyazov” OFYda joylashgan. Ushbu qabristonga mahalliy xalq Dovud payg‘ambarimizning nomini berishgan. Ammo nega aynan shu nom berilganligi haqida ma’lumot saqlanib qolinmagan.

Jing‘illi bobo qabristoni. Jing‘illi bobo qabristoni Beruniy tumanining “Qizilqal’a” OFYda joylashgan bo‘lib ushbu qabristonning vujudga kelishi juda Qadim zomonlarga borib taqaladi. Jing‘illi bobo qabristoniga qachondan insonlar dafn qilingani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Jing‘illi bobo qabristoni nega bunday nomlanishi haqida shu yerlik o‘troq xalq vakillarining aytishiga qaraganda, bu qabriston oldin qarovsiz qolib jing‘il bosib ketgan va xalq bu qabristonga Jing‘illi bobo deya nom berishgan. Hozirgi kunda bu qabristonga deyarli insonlar o‘z yaqinlarini dafn qilishmaydi.

Qirantav qabristoni. Qirantav qabristoni Nukus tumanining “Kerder”APJda joylashgan. Qirantav qabristoni Nukus tumanining Qirantov deb nomlanuvchi tog‘ hududida joylashgan. Shu sababli bu hududda joylashgan qabristonni mahalliy xalq Qirantav qabristoni deb nomlashgan.

Yesimbet ota. Yesimbet ota qabristoni Nukus tumanidagi Qazaqbay avulida joylashgan. Yesimbet ota qadimda hayot notinch bo‘lgan vaqtlarda yashab o‘tgan. Yesimbet ota shu yerlarga bostirib kelgan qaroqchilar tomonidan o‘ldirilgan. Shu yerlik xalq oraqsida shunday bir rivoyat yuradi unga ko‘ra Yesimbet ota bir to‘rang‘illikda nomoz o‘qiyotgan paytida qaroqchilar kelib uni o‘ldirishadi. Shundan keyin bu qabriston Yesimbet ota nomi berilgan. Shu yerlik xalq rivoyatlarining yana biriga qaraganda bu qabristonga 12 yilda bir bor Yo‘lbars kelib tunab ziyorat qilib ketadi deyishadi**.** Yesimbet ota qabristoni haqidagi ushbu ma’lumotlar 82 yoshdagi Paljanova Jangil buvidan yozib olindi.

"Avvalo, yoshlarimiz tarixni chuqur o‘rganishlari lozim. Negaki, o‘z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo‘lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo‘q... Ana shu tarixdan saboq chiqarmasak, ertaga kechagi кип ko‘rguliklari qaytadan boshimizga tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to‘g‘ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yadi". Birinchi prizidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov aytganlaridek biz o‘z tariximizni bilmasak buyuk kelajakga qadam qo‘ya olmaymiz. Vatanimiz mustaqillikga erishmagan yillarda xalqimiz muqaddas qadamjolarga emin erkin ziyorat qila olishmagan. Ota bobolarimiz haqidagi tarix o‘rganilmagan yoki o‘rganilgan bo‘lsa ham xato ma’lumotlar keltirilgan.O‘sha davrlarda Islom diniga sig‘inishga, dinga etiqod qilishga katta to‘sqinliklar qilingan. Mustaqillik sharofati bilan emin erkin muqaddas qadamjolarga ziyorat qilamiz va o‘tgan ota bobolarimiz ruhiga duolar qilamiz.

Qoraqalpog‘iston hududidagi qabristonlar (nekronimlar)ni ularning nomlanish tarixini til xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz Qoraqalpog‘iston xalqining o‘z tarixini qanchalik e’zozlashini, ota bobolarining nomlarini abadiylashtirishga bo‘lgan sayi harakatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Tarix – munavvar ko'zgu: Darslik/ Abdunabiyev A. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 80 b.

2. Karimov I. A. "Xalq so'zi", 2006-y. 10-may.

3. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International Experience in Attracting Foreign Direct Investment. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(4), 38-43.